

DANTE ALIGHIERINING “ILOHIY KOMEDIYA “ASARI.

KIUT Samarqand filiali talabasi

To’raqulov Abdurahim Hamdam o’g’li

E.mail:toraqulovabdurahim25@gmail.com

Ilmiy rahbar N.Zubaydova.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Dante Alighierining “Ilohiy komediya” asari haqida malumot beriladi. Bu asarda nimalar tasvirlangani, nechta bosqichlar borligi, bu asarni o’zbek tiliga kim o’girgani, tarjima qilgan inson bu asardan ilhom olib qanday asar yozgani, o’sha yozuvchining asari bilan birga “Ilohiy Komediya”ni taqqoslab o’rganib chiqamiz. Qanday o’xshashlik tamonlari bor, qanday farqli tomonlari borligi haqida malumot beriladi.

Kalit so’zlar. 1.Jannat.2 Do’zax. 3 A’rof. 4 poklik. 5 Limbo. 6 Gunoh. 7 Savob.

Dante Alighierining “Ilohiy komediya” asari jahon adabiyotining eng sara asarlaridan biri hisoblanadi. Bu asar janri epik poema o’rta asr adabiyotni jahon sahnasida chiqarib qo’yan yorqin asar. Yani bu asar uch qismdan iborat.

Birinchi qism Do’zax ikkinchi qism A’rof va uchinchi qism Jannat. Bu uch qismni yozilishidan maqsad turli xil gunoxlardan poklanish har qanday gunohga jazo borligi va har bir insoning gunohlari bezozo qolib ketmasligi takidlab o’tilgan. Odamlar bu asarni o’qib chiqib o’z qilayotgan gunohlariga qanday jazo borligini bilib olishadi va o’z gunohlaridan poklanib to’g’ri yo’lga qaytish kerakligi haqida o’ylab ko’rishadi. Dante “Ilohiy komediya” asrni o’zbek tiliga o’girgan shoir Abdulla Oripov edi. Abdulla Oripov “Ilohiy komediya”dan ilhomlanib “Jannatga yo’l” degan asarni yozdi. “Jannatga yo’l” asari sheriyl doston hisoblanadi. “Jannatga yo’l” asari ham “Ilohiy komediya”ga o’xshatib yozilgan bo’lib bu asarda poklik va sof niyat haqida so’z boradi. “Ilohiy komediya” asarida ham huddi shunday fikrlar takidlab o’tiladi. Ikki buyuk shoirlar Abdulla Oripov va Dante ham o’z asarida insonparvarlik g’oyalarini ilgari suradi. Ikki buyuk shoirlarni yozganidan asosiy maqsadlaridan yana biri turli xil yomon illatlarni yo’q qilish va hamma insonlarni ezbilikka unash haqida so’z boradi.

Dantening “Ilohiy komediya” asarida o’zini bosh qahramon qilib oladi. Bu asar uch qismga bo’linganligi to’g’risida yuqorida aytib o’tildi. 1-bosqich do’zax bo’lib Dante bu bosqichda gunohkorlarning qanday azoblanishini yoritib beradi. U o’z do’sti va yo’lboshchisi rimlik shoir Vergiliy bilan qanday gunohlarga qanday jazolar borligini kuzatib boradi. Birinchi bosqich ya’ni do’zaxda to’qizta qatlama bo’lib bu qatlamlarda insonlar o’zlarini gunohlariga qarab jazoga tortilishadi. Do’zaxni birinchi qatlamiga Dante ruhoniylarni, din ahlini kiritadi. Birinchi qatlamni shular boshlab beradi. Dante ikkinchi bosqichni A’rof deb ataydi. Bunda insonlar qilgan gunohlarini

anglab o’z xatolarini tushungan xolda gunohlardan poklanish bosqichini boshidan o’tkazadilar. Bu yerda yettita daraja bo’lib har bir darajada o’tgan odamlar o’z gunohlaridan asta sekin poklangan holatda bo’ladilar va gunohlardan yiroq yurishlari va haqiqatga yaqinlashishlari borasida so’z boradi.

Uchinchil bosqichda Dante Jannatni tasvirlab beradi. Jannatda qanday insonlar bo’ladi yani umuman gunoh ishlarni qilmagan mukammal insonlar, gunohlaridan foriq bo’lgan insonlar bo’ladi. Dante jannatda ham to’qqizta qatlam bor deb tasvirlaydi. Dante o’z sevgilisi Beatrice ko’magida yuksaklikga yetadi. Dante va Beatrice birgalikda tangri bilan birlashish maqsadlariga yetadilar. Illohiy komediyada mana shu uchta bosqich tasvirlab beriladi. Yuqorida takidlanganidek o’zbek shoiri Abdulla Oripov “Illohiy komediya” asarini tarjima qilgan va undan ilhomlanib “Jannatga Yo’l” asarini yozgan deyiladi.

Ikalla dostonda ham mualliflar kishilardagi tovlamichilik, sotqinlik, ig’vogarlik kabi qusurlarni qoralaydi. Hayotda bunday illatlarga qarshi kurashish kerakligi haqida uqtiradi. Umuman olganda adabiyotda narigi dunyo tasviri o’rin olgan turli yo’nalishlardagi asarlar talaygina masalan Fitratning Qiyomat hikoyasi, sharq adabiyotida mashhur bo’lgan Me’rojnama lar ifodalash uchun turli usullarni tanlaydilar Dante Komediya sini strukturalar, nazarida va tushunchalar ishtirokida tasvirlangan bo’lsa, Abdulla Oripov rivoyat usulini tanlaydi. Lekin mohiyati o’zgarmaydi. Maqsad insoning yomon nafsidan hosil bo’ladigan gunohlarning oqibatini ko’rsatish va ezgulikni, ishqni, insoniylikni ulug’lash, darhaqiqat, ezgulik va ishq, sadoqat kabi fazilatlar insoniyat uchun yorug’lik najotidir. Dostonlarda bu g’oya o’quvchiga asarning boshlanishidan oxirigacha uqtirib boriladi. Dante va shoir yigit nima sababdan illohiy farog’atda noil bo’ldilar? To’g’ri, ular xato qildilar, adashdilar, Hazrati insoning odamiyligiga, ezgulikga nisbatan etiqodini o’zgartirmadilar. Dantening Beaticga bo’lgan muhabbati sof, ta’malarsiz g’arasiz edi. Yigit esa inson zotining har qancha tuban ishlar qilib turganing guvohi bo’lganligiga qaramay, uning buyukligiga ishonadi, unga xizmat qiladi. So’ngi damdagagi ”Jannatga yo’l” olish imkonidan voz kechib, do’sti uchun savob ulashadi.

Mutaxasizlar Danteni “Illohiy komediya”siga o’xshatib yozilgan bir qator asarlarni keltirib otishadi. U asarlarda ham dante takidlab o’tgan barcha fazilatlar takidlab o’tilgan. Bu asarlardan Illohiy komediya asariga eng yaqini yuqorida takidlanganidek ”Jannatga yo’l” bo’ldi. ”Jannatga yo’l” asarini Abdulla Oripov Islom diniga mos ravishda yozdi, yani boshqa dinlarni aralashtirmagan holda. Dante yozgan ”Illohiy komediya” esa xristian dini bo’yicha yozilgan asar. Jannatga yo’l asarida xalqimizni ma’naviy jihatdan yuksalishiga undaydi. Gunohlardan poklanish, inson o’z ruhini har qanday gunohlardan poklashi ilgari suriladi. ”Illohiy komediya”da esa Dante gunoh va savobli ishlarni uch qismga tasvirlab o’tgan. Yomonlik va gunohlarni, Do’zax va A’rof bosqichiga keltirib o’tgani haqida malumot yuqorida keltirilgan.

Yaxshiliklar ezgu ishlar esa Jannat bosqichiga bo'lishini ham takidlab o'tildi. Danteni "Ilohiy komediya" asari shu uchun ham juda mashur, sababi uch bosqich borligi. "Jannatga yo'l" asarida shoir ruhiy ma'naviyatga yetishishi bilan birga insoniyat o'rtasidagi muammolar haqida ham so'z boradi. Dante "Ilohiy komediya"da esa xalq o'rtasidagi turli xil buzuq illatlarni qoralaydi.

"Ilohiy Komediya"da ig'vogar kimsalar Luda Iso payg'ambarga xoinlik qilgan, Brut va Kassiy do'zaxning eng tubida tinimsiz jazolanadilar. Darhaqiqat, tarozining eng og'ir pallasini insonga qilgan yomonliklar bosishining ko'rsatilishi ham buyuk dahoning insonparvarlik g'oyalrining tasviridir. Dante ushbu asarida mansabini suv istemol qiladiganlar, o'z vazifa –yu qilishi bo'lgan amalini bilmaydiganlar mutassiblar, papalar haqida juda ko'p so'z yuritadi.

"Ilohiy komediya"da har qanday gunohga jazo borligi yuqoridagi misollarda ham ko'rilib turadi. Ilohiy komediya do'zax juda yomon tasvirlanganini ko'rdik. Do'zax sakkizinchi va to'qqizinchi qatlamlariga juda ham yomon jazolar borligi haqida Dante takidlab o'tadi. Sakkizinchi qatlamda turganlar boshi pastga osilgan ilonlar bilan bog'langan degan ma'lumotlarni keltirib o'tadi yozuvchi. To'qqizinchi qatlamda muzlikda kechadigan azoblar haqida malumot beradi. Mana shu faktlardan ko'rilib turibdiki do'zax bosqichida insonlar juda ham qiyinchiliklar ko'rishi aniq. Insonlar o'z qilgan yomon ishlariga shu bosqichda o'z jazolarini olishadi.

Xulosa qilib aytganda Dantening "Ilohiy komediya" asari hayotda yaxshi yashash kerakligi va qanday gunohlarni jazosi juda yomon bo'lishi haqida malumot berilib o'tiladi. Jannatga dushgan odamlarga qanday mukofotlar borligi haqida ham malumotlar keltirib o'tiladi. Shuning uchun ham hayotda doimo yaxshi odam bo'lib yashashga harakat qilish kerakligi qo'ldan kelguncha yaxshiliklar qilish kerakligi, odamlarni hech qachon xafa qilmaslik, doimo ularga yaxshi munosabatda bo'lish kerakligi haqida bilib oldik. Xalqimiz orasida bir gap borki, Yaxshilik qilish qo'lingdan kelmasa yomonlik ham qilma to'g'ri yaxshilik qilish hammaning ham qo'lidan kela vermaydi, shuning uchun ham yomonlik ham qilmaslik kerak. Yomon insonlarni o'z nafsiqa qul bo'lgan insonlarni "Ilohiy Komediya"da takidlanganidek qanday jazolar kutib turganligi haqida bilib oldingiz. Olloh insonlarga boshqa jonzodlarga bermagan narsasini muhayyo qilgan yani ong,zavon, fahm-farosat yan shunga o'xshash nematlarni muhayyo qilib qo'yibdi Insonlarni hayvonlardan farqi shunda. SHuning uchun "Olloh" bergen ne'matlarga shukur qilib toat-ibodatlarimizni o'z vaqtida ado qilib "Ilohiy komediyada" keltirib o'tilgan Jannat bosqichiga tushishimizdi Olloh barchamizga nasib qilsin

FOYDALNILGAN ADABIYOT

1. Kushjonov M 2.Suvonov M 3.Abdulla Oripov. Toshkent Manaviyat, 2000,34-bet
867

2. Oripov A. Tanlangan asaarlar.Uch jild.Toshkent.2001
3. Qo'shjonov M. Suvonov M. Abdulla Oripov.Toshkent "Manaviyat", 2000
4. Oripov A. Jannatga yo'l 1980

